

O`ZBEKISTONNI BOZOR IQTISODIYOTIGA O`TISHI VA BOZOR IQTISODIYOTIGA
O`TISHIDAGI QIYINCHILIKLAR

Otajonov Shahzodbek Xushnudovich

*Urganch Davlat Universiteti
Iqtisodiyot faqulteti Iqtisodiyot
(tarmoqlar va sohalar bo`yicha)
222-guruh talabasi*

Annotatsiya: *Ushbu maqola bozor iqtisodiyotining rivojlanishiga, shuningdek O`zbekistonda bozor iqtisodiyotini qurish yo`lining taqdimoti va bozor iqtisodiyotining "o`zbek modeli" tahliliga bag`ishlangan.*

Kalif so`zlar: *Bozor iqtisodiyoti, an`anaviy iqtisodiyoti, buyruqbozlik iqtisodiyoti, erkin iqtisodiyot, mulkchilik.*

Аннотация: *Данная статья посвящена развитию рыночной экономики, а также представлению пути построения рыночной экономики в Узбекистане и анализу «узбекской модели» рыночной экономики.*

Ключевые слова: *рыночная экономика, традиционная экономика, командная экономика, свободная экономика, собственность.*

Abstract: *This article is devoted to the development of the market economy, as well as the presentation of the way to build a market economy in Uzbekistan and the analysis of the "Uzbek model" of the market economy.*

Key words: *Market economy, traditional economy, command economy, free economy, ownership.*

Iqtisodiy nuqtai nazardan ko'pincha iqtisodiy tizim tushunchasini ishlab chiqaruvchi kuchlarning rivojlanish darajasi bilan bog`lab turkumlashga harakat qilinadi. Shu asosda dunyodagi rivojlangan mamlakatlar iqtisodiy tizimining uchta nusxasiga kiritiladi: an'anaviy iqtisodiyot, ma'muriy buyruqbozlik iqtisodiyoti va bozor iqtisodiyoti tizimlari.

Bozor iqtisodiyoti erkin tovar-pul munosabatlariga asoslanadi, uning negizida tovar va pulning turli shakllardagi harakati yotadi. Bu iqtisodiyotning amal qilish mexanizmi ko`plab asrlar asosida tarkib topib, shakllanib, zamonaviy madaniylashgan shaklni kasb etdi va ko`pgina mamlakatlarda hukmron iqtisodiy tizimga aylandi. Aynan bozor munosabatlarining amal qilish darajasiga qarab kapitalizm, sotsializm kabi tuzumlarni olgan. Xususiy mulkning kelib chiqishi va ijtimoiy mehnat taqsimoti

bozor iqtisodiyotining kelib chiqishi va mavjud bo'lishi uchun umumiy sharoiti bo'lib chiqadi. Tovar ishlab chiqarishning bozor iqtisodiyoti taraqqiyotining asosini tashkil qiladi. Bozor munosabati mulkchilikning xilma-xilligini taqazo etadi. Chunki har qanday jamiyatning iqtisodiy tizimi mulkchilikdan boshlanadi.

Bozor iqtisodiyotining mazmuni va belgilari haqida gap borganda bu iqtisodiyotning ikki turini bir-biridan farqlash kerak. Bular: erkin (klassik yoki sof) bozor iqtisodiyoti va hozirgi zamon bozor iqtisodiyoti.

Hozirgi davrda iqtisodiyot dunyoning ko'pgina mamlakatlari uchun xos bo'lib, u turli mamlakatlarda har xil darajada va o'ziga xos xususiyat bilan amal qilmoqda va rivojlanmoqda. O'zbekiston ham mustaqilligining birinchi yillaridan bozor iqtisodiyotiga o'tishni o'z oldidagi muhim vazifalardan biri deb hisobladi. Bunda O'zbekistonda o'ziga xos madaniy, tarixiy, iqtisodiy va tabiiy xususiyatlarini hamda bu yo'ldagi jahon tajribasini hisobga olgan holda revolyutsion to'ntarishlarsiz, ijtimoiy to'qnashuvlarsiz, ijtimoiy himoyani kuchaytirgan holda asta-sekinlik bilan, lekin qat'iyatlilik bilan bosqichma-bosqich rivojlangan bozor iqtisodiyotiga o'tish yo'li tanlandi.

«Bizning bozor munosabatlariga o'tish modelimiz Respublikaning o'ziga xos sharoitlari va xususiyatlarini, an'analar, urf-odatlar va turmush tarzini har tomonlama hisobga olishga, o'tishdagi iqtisodiyotni bir yoqlama, beso'naqay rivojlantirishning mudhish merosiga barham berishga asoslanadi»¹

O'zbekistonda bozor munosabatlariga o'tish yo'li ijtimoiy-yo'naltirilgan bozor iqtisodiyotini shakllantirishga qaratilgan. Bu yo'lni amalga oshirishga, iqtisodiyotni tubdan isloh qilishga Prezidentimiz tomonidan ishlab chiqilgan quyidagi beshta muhim tamoyil asos qilib olingan:

- iqtisodiyotni mafkuradan xoli qilish, uning ustunligini ta'minlash;
- o'tish davrida davlatning bosh islohotchi bo'lishi;
- butun yangilanish va taraqqiyot jarayoni qonunlarga asoslanishi, qonunlar ustuvorligining ta'minlanishi;
- bozor munosabatlariga o'tish bilan bir qatorda aholini ijtimoiy himoyalash sohasida kuchli chora-tadbirlarni amalga oshirish.
- bozor munosabatlarini bosqichma-bosqich qaror toptirish.

Bu yo'l haqida birinchi prezidentimiz Islom Karimov o'zining "Ona yurtimiz baxtu iqboli va buyuk kelajagi yo'lida xizmat qilish – eng oliy saodatdir" nomli kitobida shunday fikr bildirgan: "O'zbekistonda qabul qilingan, "o'zbek

¹ Karimov I.A. O'zbekiston buyuk kelajak sari. T.: O'zbekiston, 1998, 101-102-betlar.

modeli"² ijtimoiy yo`qotilgan erkin bozor iqtisodiyotiga o`tishning iqtisodiyotni mafkuradan xoli etish, uning siyosatdan ustunligini ta`minlash, davlatning bosh islohotchi harakatni boshlashi, qonun ustivorligiga kuch, kuchli ijtimoiy siyosat yuritish, jarayonlarni bosqichma-bosqich va amalga oshirish kabi mashhur besh jarayonlarga barqaror o`rnatish. O`ziga xos yo'li.

Yurtimizda ushbu tartib asosida o`tkazilayotgan ishlar o`z natijalarini ishlab chiqish. yillik, 2016-yildayalpi ichki mahsulot 7.8 foizga, sanoat ishlab chiqarish hajmi 6.6 foizga, qurilish- pudrat ishlari 12.5 foizga, chakana savdo aylanmasi 14.4 foizga, 12.5 foizga, qishloq xo`jaligi mahsuloti ishlab chiqarish hajmi 6.6 foizga, meva-sabzavot yetishtirish 11,2 foizga, kartoshka yetishtirish 9,7 foizga, sabzavot mahsulotlari yetishtirish 10,4 foizga oshdi.

O`zbekistonda bozor iqtisodoining tashkil etilishi yurtimizning iqtisodiy erkinligiga va aholining turmush tarzini yaxshilashga xizmat qilmoqda. Bozor iqtisodiyotining eng sifatlaridan biri xususiy mulkchilik boshqaruvini ta'minlab, yurtimizdagichik biznes va muhim tadbirkorlikka katta e'tibor berilmoqda, bu esa o'z tadbirkorlik faoliyati bilan shug'ullanadi. Bundan keyin ham yurtimizda bozor iqtisodiyotini rivojlantirishmiz, dunyoning hududlari qatorida biz ham o`z mahsulotimizni jahon bozoriga chiqarishimiz kerak.

O`zbekiston Respublikasining bozor munosabatlariga o'tishining o'ziga xos yo'li, uning asosiy tamoyillari.

Bozor iqtisodiyoti - tovar, pul munosabatlariga asoslangan va iqtisodiy qonunlar asosida harakatlanadigan iqtisoddir. Uning ikki turi mavjud :

Birinchisi: tartibsiz, stixiyali rivojlanuvchi bozor iqtisodiyoti. U tarkok aniq maqsad harakati deyarli kelishilmagan holda amalga oshiriladi.

Ikkinchisi: tartibga solingan, boshqariladigan bozor iqtisodiyoti .

Ikkinchisida jamiyat bunday bozorga davlat orqali narx, soliq, foiz, foyda, renta kabi qator iqtisodiy vositalar bilan yo`nalish beradi, ongli tasir ko`rsatadi. Turli mamlakatlardagi bozor iqtisodiyoti umumiy qoidalarga rioya qilib borgan holda har biri o`ziga xos xususiyatlarga ega bo`lgan va bo`ladi. Bunda xo`jalikning tuzilishi, shart sharoix lari milliy rasm-rusmlari, an`analari va milliy har yokteriham inobatga olinadi.

O`zbekistonimiz ham o`zining mustaqilligini qo`lga kiritgandan so`ng bozor munosabatlariga o'tishning o'ziga xos yo`nalishlari ishlab chiqildi. Xususan bu yo`nalish birinchi prezident I. Karimovning «O`zbekiston-bozor munosabatlariga o'tishning o'ziga xos yo'li»³ asarida turli ma'ruza va

² Islom Karimov "Ona yurtimiz baxtu iqboli va buyuk kelajagi yo`lida xizmat qilish - eng oliy saodatdir" Toshkent "O`zbekiston" 2015. 126-bet

³ Abdullayev Y. Bozor iqtisodiyoti asoslari. Toshkent-Mehnat. – 1997 yil.

nutqlarida, parlament qabul qilgan qonunlarida bayon etildi va unga xalqaro tajribalar asos qilib olindi.

Birinchi Prezident I.Karimov tomonidan ishlab chiqilgan munosabatlariga o'tishga doir 5 tamoyil barcha xalq tomonidan ma'qullandi. Bu 5 tamoyil quyidarlardir:

1. Iqtisodiyot siyosatga nisbatan ustivor mavqeda bo'lishi lozim, yani siyosat ham, mafkura ham uni nazorat qilmasin, unga tazyiq o'tkazmasin, avval iqtisod, keyin siyosat.

2. Davlat bosh islohotchi bo'lishi kerak, yani, iqtisodiyotni davlat yo'li bilan tartibga solib turilishi kerak. Milliy iqtisodni shakllantirish, mustaqillikni iqtisodiy jihatdan taminlash, uni himoya qilish, jahon hamjamiyati bilan integratsiyaga erishish va xalq manfaatini yuzaga chiqarishda davlat asosiy rol uynaydi.

3. Qonun va qonunlarga rioya qilish ustivorligi ya'ni, bozor iqtisodiyotga tayanadi. Uning qoidalari ko'p ming yillik tarixga egadir. Qonunlar buzilgan joyda bozor iqtisodiyotini amalga oshirib bo'lmaydi.

4. Kuchli ijtimoiy siyosat o'tkazish, ya'ni o'tish davrini iqtisodiy qiyinchiliklari davrida kam ta'minlangan oilalar, bolalar, qariyalar, nogironlar ayniqsa iqtisodiy himoyaga muxtoj bo'lib qoladi. Shuning uchun ularni islohotlar jaryonida kuchli darajada ijtimoiy himoyalar choralarini qurish nihoyatda» zarurdir.

5. Bozor iqtisodiyotiga o'tish evolyutsion yo'l, bosqichma-bosqich amalga oshirilishi lozim. Chunki bu tizimni birdaniga yaratib bo'lmaydi. Sho'rolar tizimi davridan meros bo'lib qolgan noxush illatlar, qarashlar, ko'nikmalar, o'sha davr psixologiyasi-bularni baridan birdaniga xalos bo'lish murakkab kechadi. «Yangi uy ko'rmay turib eskisini buzma». Bozor munosabatlariga o'tishning avvalo strategik maqsadlari belgilab olindi:

-Kuchli va muntazam rivojlanib boruvchi iqtisodiy tizimni barpo etish.

-Xususiy mulkchilikni vujudga keltirish, uni davlat tomonidan himoyasini taminlash.⁴

-Korxonalar va fukfolarga keng erkinlik berish.

-Iqtisodiyotda chuqur strukturaviy o'zgarishlar kilish.

-Qonunchilikga rioya qilish

-Jahon iqtisodiyotiga integratsiyalashib borish

-Kishilarni dunyo- qarashini o'zgartirish.

Shuningdek, iqtisodiy islohotlarning ustivor yo'nalishlari ham nazariy jihatdan asoslab berildi, ular quyidagicha edi:

⁴ www.ziyouz.com kutubxonasi, Shodmonov Sh., Alimov R., Jo'raev T. Iqtisodiyot nazariyasi. Toshkent-Moliya-2002. 187-moddanning qoidalari mulkka egalik qilish 1997 yilning 1 martida qabul qilingan

-iqtisodiyotni, moliyaviy axvolni barqarorlashtirish, kat'iy moliyaviy siyosat yuritish, kredit-bank tizimini mustahkamlash, pulning qadrsizlanishi va monopoliyaga qarshi chora qurish

-Iqtisodiyotni tarkibini qayta qurish, ilg'or texnologiya orqali tayyor mahsulotlar ishlab chiqarishni kengaytirish, kichik va o'rta korxonalar qurish

-Keng ko'lamda agrar islohotlar orqali har bir dehqonga manfaatdorlik bilan mehnat qilish

-Aholini oziq-ovqat bilan ta'minlash

-Neft, gaz sanoati, energetika, oltin qazib chiqarish va rangli metallurgiya tarmoqlarini rivojlantirish

-Mamlakatning eksport quvvatidan unumli foydalanish. Uni rivojlantirish

-Tashqi iqtisodiy faoliyatini erkinlashtirish investitsiya bazasini rivojlantirib borish, xorijiy sarmoyalarga sharoit yaratish.

Yuqorida ko'rsatilgan maqsad va vazifalarni bosqichma-bosqich amalga oshirishga erishib borish. Mamlakatda islohotlar jarayonini davlat huquqiy jihatdan boshqarishning yaxlit tizimi tashkil topdi. Prezident huzurida maxsus iqtisodiy islohot, tadbirkorlik va chet investitsiyalari bo'yicha idoralararo kengash tuzildi. Iqtisodiy sohaga tegishli bo'lgan 100 dan ortiq qonunlar qabul qilindi va ularni 5 ta yo'nalishi bo'lishi mumkin.⁵

1. Shu yo'nalish doirasida «O'zbekiston Respublikasi davlat mustaqilligining asoslari to'g'risida», «Yer osti boyliklari to'g'risida», «O'zbekiston Respublikasining Vazirlar maxkamasi to'g'risida», «Milliy davlat hokimiyati to'g'risida», «Fuqarolarning o'z -o'zini boshqarish to'g'risida», va boshqa qonunlar qabul qilindi.

2. Yangi iqtisodiy munosabatlari, xususan, xususiy mulkchilikni va ko'p ukladdi iqtisodiyotni shakllantiruvchi qonunlar majmuasi yaratildi.

3. Xo'jalik yuritishni tartibga soluvchi qonunlar, ya'ni korxonalar to'g'risida, kooperatsiya to'g'risida, dehqon qishloq to'g'risida, xo'jalik jamiyatlari va shirkatlari to'g'risida qonunlar qabul qilindi.

4. Yo'nalishning tashqi iqtisodiy faoliyatini belgilab beruvchi huquqiy normalar yaratildi.

5. Inson huquqlarini, aholining ijtimoiy qo'llab-quvvatlanishini va ijtimoiy kafolatini ta'minlaydigan qonunlar qabul qilindi. O'zbekistonda iqtisodiy islohatlarni amalga oshirishda mulkni davlat tasarufidan chiqarish va xususiylashtirish yetakchi o'rinda turadi. 1992 yil fevralda davlat qo'mitasi ta'sis etildi. 1994 yilda esa uning funksiyalari o'zgartirilib, davlat mulkini

⁵ Shodmonov Sh., Alimov R., Jo'raev T. Iqtisodiyot nazariyasi. Toshkent-Moliya-2002.

boshqarish va tadbirkorlikni qo'llab-quvvatlanishini va ijtimoiy kafolatini ta'minlaydigan qonunlar qabul qilindi.

ADABIYOTLAR:

1. Shodmonov Sh., Alimov R., Jo'raev T. Iqtisodiyot nazariyasi. Toshkent-Moliya-2002.
2. Abdullayev Y. Bozor iqtisodiyoti asoslari. Toshkent-Mehnat. – 1997 yil.
3. Ishmuhammedov A.E., Sitdikova LA, Ishmuhammedov L., Sunnatov M.N. Bozor iqtisodiyoti va biznes asoslari. Toshkent. – 2004 yil.
4. www.ziyouz.com kutubxonasi
5. Islom Karimov "Ona yurtimiz baxtu iqboli va buyuk kelajagi yo`lida xizmat qilish - eng oliy saodatdir" Toshkent "O`zbekiston" 2015. 126-bet